

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni	9
B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli	16
N.M.O'ranova	
Xorijiy ta'lilda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari	20
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	24
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	28
I.M.Saidov	
Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili	33
M.I.Alimjonova	
Ta'larning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
I.I.Yo'ibarsova	
Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
M.I.Alimjonova	
Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev	
Mafkuraviy immunitet va uning zarurati	56
Z.J.Pardaeva	
Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
F.A.Ibroximov	
Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
L.D.Tuganova	
Gender va ta'lilda tenglik muammosi	75
Sh.X.Tog'aev	
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari	78
A.R.Saydullayeva	
Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari	83
G.S.Raxmonova	
Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
M.R.Usmanov	
O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova	
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari	97
E.S.Yuldashev	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	101
G.B.Karimova	
Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish	107
F.O.Toshboltayev	
Zamonaviy ta'lilda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	111
S.D.Akzamov	
Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri.....	115

GENDER VA TA'LIMDA TENGLIK MUAMMOSI

THE PROBLEM OF EQUALITY IN GENDER AND EDUCATION

ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И ОБРАЗОВАНИЯ

Tuganova Luiza Djurayevna¹

¹Tuganova Luiza Djurayevna

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi magistranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada gender va ta'lif tushunchalaridagi tenglik jihatlari. Ularning ijtimoiy hayotda tushunchasi va ta'limga bog'liqligining nazariziyy-metodologik asoslari yoritilgan. Bugungi kunda bu boradagi ilmiy bilimlarning asoslanganlik jihatlari tahlil qilingan va ilmiy faoliyatning nazariy va amaliy ishlar o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются аспекты равенства в образовании и гендерных концепциях. Освещены теоретико-методологические основы их понимания в общественной жизни и воспитательной зависимости. Сегодня анализируются аспекты обоснованности научных знаний об этом и изучаются теоретические и практические аспекты научной деятельности.

Abstract

This article examines the aspects of equality in education and gender concepts. The theoretical and methodological foundations of their understanding in public life and educational dependence are highlighted. Today, aspects of the validity of scientific knowledge about this are analyzed, the theoretical and practical aspects of scientific activity are studied.

Kalit so'zlar: gender, tenglik, ehtiyoj, gender tenglik, oila, ijtimoiy-huquqiy, jamiyat, iqtisodiyot.

Key words: gender, equality, gender equality, society, need, family, socio-legal, economics.

Ключевые слова: гендер, равенство, потребность, гендерное равенство, семья, социально-правовое, общество, экономика.

KIRISH

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsnинг esa sifatlari ta'lif olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lif tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash mavjud mexanizmning jamiyatning barcha bo'g'in ehtiyojlarini tengligini saqlagan , asoslangan holatda amalga oshirish lozim.

Ta'lif hamma uchun barobar bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj. Inson yaratibdiki bilimga, fanga doimiy ravishda intilib yashagan. O'rghanish, bilish, yaratish inson tabiatining ajralmas belgisidir. Bugungi kunda ta'lif integratsiya jarayoni shiddat bilan shakllangan bir davrda bizning davlatimizda ham ta'limga katta e'tibor qaratilayotgani hech kimga sir emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ayollarning gender tenglikka erishish kabi masalalarni tadqiq etishda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tadqiqotchilarini tomonidan ayollar faolligi, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni xususida qator monografik tadqiqotlar e'lon qilingan. Bu borada N.Ivanova, M.Martin, I.Groshov, S.Prigojena, L.Popova kabi faylasuflarning ilmiy izlanishlarini namuna qilish mumkin. Ayollar ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalari hamda ayol huquqlariva ijtimoiy mavqeい masalalarini S.A.Axrarov (O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish), N.D.Jo'rareva (O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni), N.M.Muravyova (Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari) kabi olimlar ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etishgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tenglik — jamiyatdagи barcha shaxs, qatlam, guruh, partiya va shu kabining qonun oldida baravarligini ifodalovchi tushuncha, adolatli jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri. Tenglik ta'minlangan jamiyatda uning barcha a'zolari yashash, ta'lif olish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mulkdor bo'lish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo'ldi. Xotin-qizlarning ilmiy faoliyatda ishtirok etishiga bo'lgan munosabat o'zgarganiga qaramay, zamonaviy jamiyatda gender segregatsiyasi mavjud bo'lib qolmoqda va jinsga qarab kasbiy

ajratishning ikki shakliga bo'lingan. Bunday yondashuv esa jamiyatning sog'lom qarashlarini shakllantirishga katta ta'sir o'tkazadi.

O'rta asr din falsafasida tenglik tushunchasi ko'proq an'analarda va diniy ya'ni "Allohnning oldida hamma tengdir" degan qarashda o'z aksini topdi, ammo bu qarash to'laqonli tenglik tushunchasiga mos emas edi. Uyg'onish va ma'rifatparvarlik davrida ijtimoiy tenglik tushunchasining falsafiy talqini tabiiy tenglikda tushunila boshlanadi. Asta sekinlik bilan tenglik tushunchasini "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" va "Erkinlik, tenglik va birodarlik" shiorida aks etib, tenglik va erkinlik, tenglik va adolat g'oyalari maqsad qilib olindi. Tenglik keng tushuncha, bu tushunchaning bugungi kundagi ko'rinishi "Huquqiy tenglik, diniy tenglik, millatlarora tenglik" va shu kabi boshqa tushunchalardan iboratdir. Tarix "Tenglik" tushunchasining har bir davrda qanday ma'noga ega bo'lganligini ko'rsatib beradigan asosligini bilamiz va har bir insonning mavjud huquqlardagi tenglikka bo'lgan munosabati bunga misol.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining dastlabki yillardanoq tenglik munosabatiga huquqiy asos O'zbekiston Respublikasi asosiy Qonuni Konstitutsiyaning qabul qilinishi, xalqimizning eng katta yutug'i ekanligi hammamizga ma'lum. Asosiy qonunda belgilab berilgan shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy huquqlarning hamda davlat boshqaruvidagi tenglik munosabatlарining nafaqat xalqimizga, balki davlatlarora munosabatlарiga bo'lgan hurmat belgisidir. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonunining 3-moddasida:-"Ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon" deya ta'rif berilgan. Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holatda belgilangan huquqiy me'yordagi talablarni amalga oshirish esa muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risidagi Qaroriga asosan:

Xotin-qizlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish orqali davlat va jamiyatdagi faolligini kuchaytirish, gender tengligni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida tizimli ishlarni tashkil etish bo'yicha davlat dasturi belgilandi. Qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar shundan dalolat beradiki bizning davlatda har doimidan ham ta'lim sohasiga bo'lgan ehtiyoj juda kuchli va ko'lamli. Ayniqsa ko'p bolali oilalarimizda ayollarning faqat kundalik hayot tashvishlari bilan emas, balki ta'limga, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish juda muhim hisoblanadi. Gender tenglik masalasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan tushuncha emas, bu tushunchaning asosi avvalo diniy qarashlarda keyinchalik esa asosiy qonunimiz Konstitutsiyada ham o'z aksini topgan. Yangi O'zbekiston tizimida rahbarlik tushunchasi endilikda nafaqat erkaklar timsolida balki ayollar timsolida ham namoyon bo'layotganligining guvohimiz. Davlatning boshqaruven sohasida, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish tizimida ham rahbar ayollarning ishtiroki e'tiborimizni tortmoqda. Bugungi kunda barcha e'tibor albatta ta'lim tizimiga bejiz qaratilgan emas. Yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash uchun esa yangi bosqichga ko'tarilishni talab qiladi. Dunyo rivojlanmoqda u bilan hamnafas inson, ta'lim birga, tengma-teng rivojlanishga harakat qilish kerak. Gender tenglik tushunchasi biologik jinslar tengligi tushunchasi ekanligi to'g'risida unutmasligimiz kerek. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi asosida qirqdan ziyod qonunlar qabul qilindi.

Global miqyosda ayollar erkaklarniga qaraganda iqtisodiy ishtirok etish uchun kamroq imkoniyatlarga ega, asosiy va oliy ta'lim olish imkoniyati kamroq, sog'liq va xavfsizlik uchun katta xavflar va kamroq siyosiy vakillik mayjud.

Xotin-qizlar huquqlarini kafolatlash va ularga o'z salohiyatini to'liq ro'yogha chiqarish uchun imkoniyat yaratish nafaqat gender tengligiga erishish, balki keng ko'lamli xalqaro rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Vakolatli ayollar va qizlar o'z oilalari, jamoalari va mamlakatlari salomatligi va unumdorligiga hissa qo'shib, hamma uchun foydali bo'lgan to'lqinli effekt yaratadi.

Tenglikka asoslangan jamiyatning kelajagi buyuk, qonuniy ta'minlangan adolat har bir rivojlanayotgan davlatning asosi hisoblanadi. Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-fevraldagisi 46-sont Inson huquqlari sohasida Milliy ta'lim dasturini qabul qilish to'g'risidagi qarorining to'qqizinchiligi vazifasida inson huquqlari va gender tenglik masalalari bo'yicha rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan o'quv kurslarining tashkil etilishi hamda barcha vazifalarni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasining to'laqonli amalga oshirilishi bo'yicha topshiriqlar berildi.

PEDAGOGIKA

Gender so'zi jamiyatda erkaklar va ayollar uchun mos deb hisoblaydigan ijtimoiy jihatdan qurilgan rol va mas'uliyatni tavsiflaydi. Gender tengligi erkaklar va ayollar teng kuch va moliyaviy mustaqillik, ta'lismi va shaxsiy rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Ayollar imkoniyatlarini kengaytirish gender tengligiga erishishning muhim jihatni hisoblanadi. Bu ayloning o'zini o'zi qadrlash tuyg'usini, qaror qabul qilish qobiliyatini, imkoniyatlar va resurslardan foydalanishi, uy ichidagi va tashqarisidagi o'z hayotini kuchi va nazoratini, o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, gender masalalari faqat ayollarga emas, balki jamiyatdagi erkaklar va ayollar o'rtaсидаги munosabatlarga qaratilgan. Erkaklar va o'g'il bolalarning harakatlari va munosabatlari gender tengligiga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lismi asosiy e'tibor sohasidir. Garchi dunyo ta'lismi sohasida gender tengligiga erishishda muvaffaqiyat qozonayotgan bo'lsa-da, maktabga bormagan bolalarning o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq foizini qizlar tashkil qildi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi qizlarning taxminan to'rtadan biri maktabga bormaydi. Odatta, barcha bolalari uchun maktab to'lovlari, kiyim-kechak va jihozlar kabi harajatlarni qoplay olmaydigan imkoniyati cheklangan oilalar o'g'illari uchun ta'limga birinchi o'ringa qo'yishadi. Oilalar, shuningdek, qizlarning uy yumushlari, suv tashish va bolalarga qarashlari uchun mehnatiga tayanishi mumkin, buning natijasida maktabda o'qish uchun vaqt cheklangan. Ammo qizlarning ta'lismi olishiga ustuvor ahamiyat berish, ehtimol, rivojlanayotgan dunyoda investitsiyalardan eng yuqori daromad keltiradi. O'qimishli qiz turmush qurishni kechiktirish, kichikroq oilani tarbiyalash, sog'lom farzand ko'rish va o'z farzandlarini maktabga yuborish ehtimoli ko'proq. Ayollar va qizlar ta'lismi olish va tamomlash huquqididan foydalanishi va uni ayollar va qizlar hayotida muvaffaqiyatlri qo'llash yo'lida ko'plab to'siqlarga duch kelishadi, jumladan qashshoqlik, geografik istisno, ozchilik maqomi, nogironlik, erta turmush qurish, homiladorlik, gender zo'ravonlik va an'anaviy ayollarning maqomi va roli haqidagi e'tiqodlar. Ta'limga gender kamsitish jamiyatdagi gender tensizliklarining ham sababi, ham natijasidir.

Ba'zi joylarda ayollar hali ham yerga egalik qilish yoki mulkni meros qilib olish, kredit olish, daromad olish yoki ish joylarida kamsitishlarsiz ko'chib o'tish huquqiga ega emaslar. Barcha darajalarda, shu jumladan uyda va jamoat maydonida, ayollar qaror qabul qiluvchi sifatida keng ko'lamda taqdim etilmaydi. Dunyo bo'ylab qonun chiqaruvchi organlarda ayollar soni kamchilikni tashkil etayotganligi ma'lum, ammo ayollarning siyosiy ishtiroti gender tengligi va haqiqiy demokratiyaga erishish uchun juda muhimdir.

XULOSA

Ta'lismi o'zida barcha sohalarni qamrab oluvchi ijtimoiy tushunchadir. Umumiy jihatda ta'limga tenglik bugungi kun yutuqlari uchun keng imkoniyat chashmasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijtimoiyashuv jamiyatdagi barcha a'zolarning tenglik asosida mavjud bo'lishi, inson o'rtaсидаги axborotlar, fikrlar, g'oyalar almashadigan jarayon tendensiyasini shakllantirish hamda dunyoviy qarashlarning barqaror mavjub bo'lish tizimidir.

Asrlar davomida shakllangan tushunchalarning pessimistik holatlarini chetlab o'tgan holatlarni e'tiborga olgan holda bugungi kun ta'lismi shakllantirish juda muhim bosqichlardan biridir. Inson dunyoqarashidagi transformatsiya jarayoni ta'limga olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga bog'liq holatda amalga oshirilishi ijtimoiy jarayonda muhim o'r'in tutadi. Bu jarayon albatta tenglik munosabatlariga ahamiyat bergen holda yuritilishi, sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi maydonga aylanishi tabiiy holatdir. Xilma xil madaniyatlarning, qarashlarning o'zaro bog'lana olishiga bo'lgan sabab sifatida albatta ta'limga tenglik barcha uchun bir xil munosabatning shakllanish tushunchasida deb qaralsagina, ularni rivojlantirishga qaratilgan jarayonlarni ko'ra olamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Давлат олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш жараёнларини ташкил этиш тўғрисида"ги ПҚ-279-сон қарори // <https://lex.uz/docs/6070845>
2. Уразалиева Г. Гендер ва аёллар хукуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б.3.
3. Узбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2001. – Б.252-254
4. Tuganova Luiza Djurayevna (2022). Reforms to protect the rights and interests of women in the renewed Uzbekistan is a priority direction of state policy. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS). Volume 3, Issue 12, Dec., 2022. – pp. 1014-1021.
5. Гендерное равенство в странах Ближнего Востока и Северной Африки в XXI веке // <https://russiancouncil.ru/blogs/Ural-associationmiddleeast/genderne-ravenstvo-v-stranakh-blizhnego-vostoka-i-severnoy-afriki-v-xi/>
6. "Пятый этаж": гендерное равенство или равноправие? // https://www.bbc.com/russian/society/2016/03/160308_5floor_8_march_equality
7. Борьба за равенство. // https://forbes.kz/woman/borba_za_ravenstvo/
8. Гендерное равенство. // <https://www.un.org/ru/global-issues/gender-equality>